ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

САМАРҚАНД ДАВЛАТ ЧЕТ ТИЛЛАР ИНСТИТУТИ

РОМАН-ГЕРМАН ФИЛОЛОГИЯСИ ФАКУЛЬТЕТИ

Магистр ва талабаларнинг анъанавий XX илмий-амалий конференцияси МАТЕРИАЛЛАРИ

Ушбу тўплам Самарқанд давлат чет тиллари институти Илмий Кенгашининг 2014 йил 2 июндаги 11-сонли баённомаси билан нашрга тавсия этилган.

САМАРҚАНД-2014

МУНДАРИЖА

Ризаев Б.Ҳ.	Сўзбоши	3
Bekmuradova Z.	Monteskyoning "fors nomalari" qissasi matnining lingvo-poetik tahlili	4
Бегматов Қ.М.	Пайт эргашли қўшма гапларда синтактик-семантик маъноларнинг фодаланиши	8
Absalomova G	Hozirgi fransuz tilida "hayvon" semali frazeologizmlar va ularning asliyat bilan bog'liqligi	10
Azimova Z.I.	Navoiy ijodi xorijda	14
Kazakov T.A.	Ingliz tilidagi ba'zi bir iboralarning etimologik jihatiga doir	16
Расулова М.	Хорижий тил таълимида ўйин тарзидаги дарсларни ташкил этишнинг ўзига хос хусусиятлари	18
Севарбоева М.	Немис тилида иловали қурилманинг структуравий ўзига хосликлари	20
Раҳмиддинова Б.	Немис тилида иловали элементларнинг гуруҳларга ажратилиши	22
Мухамадиева М.	Рамочная конструкция - феномен синтаксического строя немецкого языка	24
Даниёрова Б	Виды общественно-политического дискурса	26
Юсупова М	Когнитивный сценарий в художественном тексте	29
Ҳайитова С	Французча рекламаларда икки нуқтанинг коммуникатив имкониятлари	31
Неъматова М	Ҳозирги француз тилида *поп* инкорининг синтактик структуралари	36
Aliyeva G.	Fransuz tili frazeologik birliklarining etimologiyasi hamda ularning lingvo-poetik tahlili	38
Sharipov B.	Fransuzcha antonim frazeologik birliklarning o'ziga xos struktur-semantik xususiyatlari	43
Sharipov B.	Fransuz xalq maqollaridagi komponentli oppositsiya	46
Oblaeva M.	Referenzrahmen in den Fremdsprachen	49
Nurmurodova Kh.	Projektarbeit im Da Unterricht	51
Cholmöminov A.	Popliteratur in Deutschland	52
Ismoilova M	Fransuz tilida mantiqiy ega va uning ifoda vositalari	54
Davronova U	Qofiyadosh frazeologik iboralarning fonetik xususiyatlari	57
Расулова М.	Семантичский анализ терминов техники в итальянском языке	59
Ergashova B.	Italo Kalvio ijodida yoshlar mavzusi	63
Hamrayeva Z.	Fransuz tilida predlogli frazeologik birikmalarning qo`llanilishi	64
To'raqulova M	Fransuz frazeologiyada takroriy elementlar tahliliga doir	66
Tolliyev O.	Fransuz tilidagi aforizmlarda zamonlar tasnifi	68
Мирбобоев Ф.	Француз тили ва маданияти тараққиётида Шарқ тилларидан ўзлашган сўзларнинг роли	70
Shodiyeva N	Askanio – o'lmas sadoqat qissasi	72
Шарипов Б	Инглиз тилида лексик ва фразеологик антонимия тамойилларининг мослашувига доир	75
G'aybullayeva M	O'zbekiston va Hindistonda ingliz tilining chet tili sifatida o'rgatilishining zamonaviy metodlari	79
Қулматова Д	Француз тилида вергулнинг ишлатилиши	81

Sayfullayeva K	Fransuz matnlarida artikl shakllarining stilistik maqsadda qo'llanishi	85
Boyqobilova H	La expresión de acuerdo y desacuerdo en español	87
Haydarova F	El Enfoque comunicativo en la enseñanza de lexico	89
Yaxshiyeva H	Las colocaciones léxicas en el español actual	92
Сохибова Н	Прагматические свойства испанских народных сказок	94
Хўжанова Х	Грамматик маъно ва уни француз ёзма ва оғзаки нутқида ифодалашнинг фономорфологик воситалари	96
Xudoyberdiyeva M.	Britaniya va Amerika ingliz tilisining farqli jihatlari	98
Elmurodova R.	English proverbs and their equivalence in french	102
Boyqobilova H.	Ingliz tilini o'rganishning tez va samarali usullari	105
Umarova K.	Die Rolle des Lehrers/der Lehrerin im Unterricht des Deutschen als Fremd und Zweitsprache	108
Haydarova F	Ingliz tili va ispan tilida artiklni qiyoslab o`rganish	111
Бурхонов У.	Хуан Гайтисоло Гай ижоди	113
Ochilova H.	Fransuz va ingliz tillarida artiklning turlari	115
Jabborov A.	Fransuz tilida sufikslar ot yasalishida asosiy vosita sifatida	117
Shukurova F.	O'zbek va italyan tillarida rod kategoriyasi	119
Ergashova B.	Nikkolo ammaniti xxi asr italyan o'smirlar adabiyotining yirik namoyondasi	123
Bagirova S.	Clasificación de los verbos en español	125
Eshoqulova A.	Sog`lom bola – yurt kelajagi	129
Ҳасанова Ю.	Шеърнинг синтактик қурилиши ва унинг таржимада акс этиши	132
Mardonova P.O.	Handlungsorientierter unterricht beim sprachenlernen	135
Maxmudova F.	Fransuzcha frazeologik iboralarda qiyoslash kategoryasi	138
Hukumova Y.	Xatolardan o'rganamiz	141
Аҳмедова Г.	Томас манннинг ҳаёти ва ижоди	143
Murodova N.	Shimoliy italiyada til va dialektlarning o'zaro farqi	145
Naimova P.	Yashayapmiz, demak baxtlimiz	148
Ziyadullayeva M.	"Ci" yuklamasining ishlatilishi	149
Shakarova M.	Ekologik muammolardan biri – chiqindilar	152

қўлланилса тугалланганлик, чегараланмаган феъл қўлланилса эса тугалланмаганлик, процессуаллик ифодаланиши кузатилади (Ризаев 2008).

Биз замон шаклларининг аспектуал ҳусусиятларига батафсил тўхталганимиз сабаби улар ПЭГҚГларнинг семантикасини ёритиб беришда жуда ҳам мухим роль ўйнашидадир. Аксарият ҳолатларда ПЭГҚГларда у ёки бу замон шакллари, у ёки бошқа пайт боғловчиларининг қўлланилиши биринчи навбатда ЭГда (айрим ҳолатларда БГда) қўлланилган феълнинг акционал (чегараланган/чегараланмаган) маъноларига ва улар ёрдамида ифодаланган аспектуал вазиятларга боғлиқ.

Бу ерда айтилган фикрларни инобатга олиб биз ПЭГҚГларни тахлил қилишда нафақат пайт боғловчиларни семантикаси, ЭГларни БГга нисбатан жойлашуви, замон шаклларини қўлланилиши, балки замон шаклларида қўлланилган феълларнинг акционал семантикаси, улар ва аспектуал (ва таксис) контекстлари ёрдамида ифодаланган аспектуал вазиятларни инобатга олишимиз шарт.

АДАБИЁТЛАР

1. Балин Б.М., Бурмистрова Л.А. Колосова Л.П. Малышкина Н.В., Нефедов В.Д., Чебурахина Н.Е. Сравнительная аспектология русского и немецкого языков. – Калинин, 1979.- 86 с.
2. Лингвистический энциклопедический словарь.- М. «Советская энциклопедия», 1990. – 684 с.
3. Павлов В.М. Темпоральные и аспектуальные признаки в семантике "временных форм" немецкого глагола и некоторые вопросы теории грамматического значения //Теория грамматического значения и аспектологические исследования. - Л., 1984. - С. 42-70.
4. Ризаев Б.Х. Проблема аспектной семантики временных форм немецкого глагола. Аспектная семантика претерита. – Ташкент: Фан, 1999.– 121 с.
5. Ризаев Б.Х. Аспектная семантика перфектных и плюсквамперфектных форм немецкого глагола. СамГИЯ, Самарканд, 2003. – 89 с.
6. Andersson S.-G. Aktionalität im Deutschen. Eine Untersuchung unter Vergleich mit dem russischen Aspektsystem. II. Korpusanalyse. Mit einem Exkurs über Aktionalität im deutschen Verbalformsystem. Uppsala, 1978.

HOZIRGI FRANSUZ TILIDA “HAYVON” SEMALI FRAZEOLOGIZMLAR VA ULARNING ASLIYAT BILAN BOG’LIQLIGI

SamDChTI 1-kurs magistranti ***Absalomova Gulmira***
Ilmiy rahbar: prof. ***I.K.Mirzayev***

Biz ushbu maqolada hayvon semali frazeologik birliklar va ularning o’zbek tiliga tarjimasi haqidagi ayrim mulohazalarimizni bayon qilmoqchimiz. Frazeologizmlarning bu turi (zoofrazeologizmlar) mazmuniy tarkibiy va tarjimaviy nuqtai nazardan, bizningcha talablar darajasida o’rganilgan emas. Tadqiqot obyekti

qilib Peterburg davlat Universtiteti roman filologiyasi kafedrasining o'qituvchisi I.N.Timeskovaning "Les Citations Françaises" nomli kitobi olindi. Ushbu kitob rus tiliga "крылатые слова, их значение и происхождение" ("Qanotli so'zlar, ularning ma'nosi va kelib chiqishi") shaklida tarjima qilingan. Kitobni tuzishdan ko'zlangan asosiy maqsad o'quvchini yetuk fransuz adiblari, jamoat arboblari va faylasuflarning allaqachon fransuz xalqi turmush tarzida ommalashib ketgan iboralar qaydlari, shuningdek, diniy va afsonaviy ma'nodagi so'zlari o'rin olgan. "Les Citations Françaises"da jami to'rt yuz oltmish beshta qanotli so'zlar keltirilgan bo'lib, ulardan qirq oltitasini hayvon semali zoobirikmalar tashkil etar ekan. Tadqiqotimiz obyektidagi hayvon semali turg'un birikmalarni mazmunan uy hayvonlari, yovvoyi hayvonlar, sudralib yuruvchilar va qushlar guruhlarga bo'ldik.

Ushbu kitobda "hayvon" semali frazeologizmlar umumiy soni qirq oltitani tashkil etar ekan ulardan **"âne" ("eshak")** semalisi 10ta.

Etre comme l'âne de Buridan.*[И.Н.Тимескова, 1974, 15 б]* **- *Буриданов осёл – Buridan eshagiga o'xshamoq.***

Jan Buridan, fransiyalik olim, XIII asrning 60 - yillarida yashab ijod etgan. Ko'p yillar faylasuf sifatida faoliyat yuritgan, ikki marta Parij universtitetining rektori etib saylangan, ammo nomining yanada mashhurlashuviga uning eshagi sabab bo'ldi desak, xato bo'lmaydi. U eshakni hovlisiga bog'lab ochiqtirib, chanqaganligiga ham qaramay, undan sal uzoqlikda eshakga yetkazmasdan idishda suv yana boshqa tomonga, shunday uzoqlikda bir bog'lam pichan olib kelib qo'yadi-da o'zi bo'lsa, eshakning hayot uchun kurashib, o'limga mahkum bo'lish jarayonini kuzatadi. So'ngra bu voqea ta'sirida ko'plab faylasuflik ilmiy ishlari muhokamaga qo'yildi. Ayniqsa, determinizm (narsa va hodisalarning sababiy bog'lanishlari haqidagi materialistik ta'limot) va indeterminizm (tabiat va jamiyat hodisalarining obyektiv qonunlarini va ularning o'zaro bog'liq holda bir-birini taqozo etishini inkor etuvchi idealistik falsafiy ta'limot)larning bir - biriga zid qoyilishiga muhim yo'nalish bergan. Biroq, faylasuf eshakning achinarli o'limiga sabab bo'lgan. Shundan buyon fransuz xalqi turg'un birikma bo'lib qolgan bu iborani, qay tomonini bilmasdan turgan, behad ikkilangan insonlarga nisbatan qo'llashadi.

Oiseau ("qush") semasi orqali ifodalangan frazeologizmlar soni ushbu kitob bo'yicha 11tani tashkil etdi. Bunda parrandalar va turli - tuman qushlarning semalari keltirilgan. Jumladan: ***rossignole d'Arcadie*** *[И.Н.Тимескова, 1974, 178 б]* **- *аркадский соловей – Arkadiya bulbuli.***

Hangi , ko'chma ma'nodagi yoqimsiz bulbul kabi ma'nolarni beradigan bu iboraning kelib chiqishi tarixiy bo'lib, XVII asrning boshlarida, dastlab, rimliklar va greklar Arkadiya (Yunonistonning bahtiyor cho'ponlar maskani sifatida tavsiflangan o'lka) eshaklarining hangiliklariga bulbulni qiyos qilgan ekanlar. Boisi, mashhur fransuz masalnavisi Jan do' la Fontenning masallaridan birida, ahmoqona ta'riflar orqali keltirilgan bulbul hayvonlarga musiqadan saboq berganligi kinoya ostiga olingan. Shuning uchun ham bugungi kungacha fransuzlar e'tibordan chetda qolmagan bu turg'un birikmani ovozi, so'zi yoqimsiz, kishining g'ashiga tegadigan darajadagi kimsalarga nisbatan qo'llashadi.

[И.Н.Тимескова, 1974, 206 б] ***подиплитьсукна котором сидишь tilla tuhum qo'yayotgan tovuqni o'ldirish*** Qadim zamonda bir odam uyida g'oz boqar ekan. G'oz har kuni xo'jayiniga sof tillodan har kuni bitta tilla tuhum qilib berar ekan. Boylikga hirs qo'ygan odam, birdan boyib ketish payida hayolida g'ozning ichida behisob tillolar yashiringan deya g'ozni o'ldirib qornini yorib ko'rishgacha boradi. Ammo, qattiq adashib g'ozning tana a'zolari boshqa g'ozlarnikidan aslo farq qilmaganligini ko'radi va dod - ayuhannos soladi, ammo nafsi tufayli har kungi bitta tilla tuhumdan ham mahrum bo'ladi. Yuqorida keltirilgan iborada *poule* («tovuq») semasi orqali ibora keltirilgan, biroq ushbu frazeologik birlikning ma'nosi o'zgarmaydi, boylikga o'ch odamlarga nisbatan kinoya tarzida "pulga ko'milgan odamdek o'tiribdi" deya qo'llanadi.

Chorva va uy hayvonlari misolida keltirilgan frazeologik birliklar soni: **vâche (« sigir »)** misolida 2 ta, **mouton (« qo'y »)** misolida 2 ta, **chèvre (« echki »)** semasi orqali ham 2 ta, **cheval (« ot »)** semasida 3 ta, **chien (« it »)** semasida 3 ta, **chat (« mushuk »)** semasi orqali berilgan frazeologik birlik 1ta keltirilgan.

***Moutons de Panurge** [И.Н.Тимескова, 1974, 128 б] – панургово стадо-podadagi moldek ongsiz.*

Ushbu ibora tarixdan Fransua Rabelening (1494-1553) "Gargantua va Pantagruel" (« Gargantua et Pantagruel ») asarida asosiy qahramon hisoblanmish Panurj va qo'y sotuvchisi Dinedolt o'rtasidagi qattiq janjal oqibatida paydo bo'lgan. Janjal dengizda kemada sodir bo'ladi, sotuvchining haqoratlaridan qattiq jahl otiga mingan Panurj undan o'ch olish maqsadida uning qo'ylarni bitta - bitta dengizga uloqtirib yuboradi, hayvonlaridan ayrilayotgan Dinedolt qo'ylardan birini flotga yashirishga erishadi, ammo o'sha qo'y ham dengiz shiddatli to'lqinidan nobud bo'ladi. Qo'ylarning janjal bo'layotgandagi sarosimaliklari, dahshatga tushib nima qilishini bilmasdan qolganliklari – xalq, olomonga nisbatan ko'chirilgan, shundan buyon bu iborani fransuzlar hech narsani bilmaydigan omi xalq, to'dasiga nisbatan qo'llashadi.

Les sept vaches grasses et les sept vaches maigres - [И.Н.Тимескова, 1974, 185 б] сем голодных лет после семи лет изобилия - yetti och va yetti to'q yil.

Iboraning kelib chiqishi «semiz sigir va oriq sigir » fransuz tilida turg'un birikma bo'lib qolgan so'zlar etimologiyasiga borib taqaladi, bu haqda bibliya kitoblarida ham ta'rif berib o'tilgan. Bundan tashqari, Misr firavnlari ham yetti yilni to'kin - sochinlik, keyingi yetti yilni bo'lsa yetishmovchilik deya o'zlarining davlat ishini yuritishlarida dasturamal qilib olishgan. Iboraning aynan sigir semasi orqali berilishi, sigirning ko'p yeyishi oqibatida birdan o'zgarib semirishi, kam yesa tezda oriqlashi to'kin – sochin va yetishmovchilik yillariga ramz qilib olingan.

Menager la chèvre et le chou [И.Н.Тимескова, 1974, 120 б] - и волки сыты, и овцы целы – bo'rilar to'q, qo'ylar ham omon.

Bu ibora, deyarli, XIII asrdan buyon qo'llanilib keladi. Ya'ni, arosatda qolgan insonga nisbatan aytiladi. Bu iborani so'zma so'z tarjima qilsak, yo echkini yo karamni asrab qolmoq ma'nosini beradi. Fransuz xalqi ushbu ibora orqali arosatning keskinligi, jiddiyligi echki va karam misolida aniq ko'rsatib berilgan.

Chien du jardinier** [И.Н.Тимескова, 1974, 48 б] – **собака на сене - o'zi yemas birovga bermas.

Fransuz xalq ertaklarda aytilishicha, bir bo'g'bon karam dalasini boshqa hayvonlardan qo'riqlash maqsadida it asrab oladi. Yillar o'tib sofdil va mehribon bog'bon vafot etadi. Shunda ham o'z xo'jayiniga sodiq qolgan it xo'jayining karam dalasini qo'riqlashda davom etadi. Ushbu iborani fransuzlar hech narsaning bahridan o'tolmaydigan, qizg'anchiq, odamga nisbatan qo'llashadi.

Suv hayvonlari nomi bilan ifodalangan fazeologik birlik soni 4 ta.

Rechauffer un serpent dans son sein**[И.Н.Тимескова, 1974, 169 б] - **отогреть змею на своей груди - qo'ynida ilon saqlamoq.

Serpent ("ilon") semasi orqali ifodalangan ushbu iborada ilon, xoinlik, sotqinlik ramzidir. Frazeologik birlikning kelib chiqish tarixi hind – yevropa xalqlari tiliga borib taqalib, dastlab, lotin tilida « viperam sutricare subala» ya'ni «ilonni sut bilan boqmoq » deya tarjima qilinadi. Umuman olganda, e'tiborga noloyiq kishini himoya qilishdir. Haqiqatga yaqinligi, bir xilda doim muzdek turadigan ilonni qancha issiq tanangizda saqlamang ilimasligi, ilon tusini bir necha holatga o'zgartira olishi, uning misolida odamlarga nisbatan bo'lgan munofiqlik, sotqinlik, makkorlik ramzlari ushbu sovuq hayvon misolida olingan.

Larmes de* crocodile[И.Н.Тимескова, 1974, 111 б] - **крокодиловы слезы – yolg'on ko'z yoshlar.***

Yasama ko'z yoshlar, atrofdagilarni tashvishga solishda, taqdiridan nolishda turli ayyorliklardan foydalanishdagi jarayonga nisbatan qo'llaniladi. Har bir iboraning paydo bo'lish jarayonini kuzatganimizda asliyat bilan bog'liq hollar namoyon bo'lmoqda. XVI asrdan buyon qo'llaniladigan bu ibora misolida-chi, haqiqatdan ham timsohlar yig'laydimi? Misr va Nil daryosi bo'ylariga borib qaralganda haqiqatdan ham timsoh ozig'ini topa olmasdan qolsa, huddi shunday, qattiq ko'z yosh to'kar ekan.

Yovvoyi hayvon ***ours** (« ayiq »)* semasi orqali ifodalangan frazeologik birliklar soni 2 ta.

Ours mal léché** [И.Н.Тимескова, 1974, 145 б] – **неотесанный медведь, человек - qo'pol, dag'al odam.

Bu ibora XVII asrdan buyon qo'llaniladi. Jamoaga qo'shila olmaydigan qo'pol, tayinsiz odamlarga nisbatan aytiladi. *Mal léché* – so'z birikmasi ham madaniyatsiz degan tarjimani keltirib chiqaradi. Aynan bu iboraning ayiq misolida olinishi esa, ayiqning maymoq, beso'naqay o'xshashlik tomonlari olinganligidadir.

Hayvonlar podshohi ***lion (« sher »)*** - semasi orqali ifodalangan iboralar soni 3 ta.

Part du lion**-[И.Н.Тимескова, 1974, 148 б] **львиная доля - ulushning katta qismi. Jan do' la Fontenning masali orqali paydo bo'lgan ushbu ibora voqeligi quyidagicha bo'lgan: hayvonlardan g'unajin, echki va sovliq o'zlari o'rtada mehnat qilib topgan foydani bo'lishishda bir qarorga kela olmay hayvonlar podshohidan, ya'ni ular uchun adolat timsoli bo'lgan, arslondan yordam so'raydi. Arslon mansab darajasidan foydalanib ulushni taqsimlashdan oldin hayvonlar sardori ekanligidan foydalanib foydaning eng katta qismini o'ziniki qilib oladi.

Shunday qilib, adolatsizlikni kinoya qilishganda fransuz xalqi ushbu iborani qo'llashadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yuqorida hayvon semalari orqali keltirilgan frazeologik birliklarning har biri bejizga bugungi kunga kelib ham, fransuz xalqi e'tibordan chetda qolmagan, tarixiy ahamiyatli va har bir hayvon timsolida ma'lum bir ma'noda kishilar harakter xususiyatlarining ijobiy, salbiy jihatlari ochib berilmoqda. Insonlarning hislatlari jonivorlarga ko'chirilib, tarbiyaviy ahamiyatga molik ekanligi fikrimiz isbotidir.

Adabiyotlar

1. I.N.Timeskova "Les Citations Françaises", Leningrad, 1974.
2. Le petit Larousse (cahiers thématiques), Paris, 2006
3. www.google.fr les expressions avec les animaux.
4. http.fr.phraseologie français avec les animaux.